



LINGUOCULTURAL FEATURES OF SOME PHRASES USED IN "SATAN"

Rozakhon Nomonova

Lecturer

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: linguocultural significance, stable connections, national character, artistic intention.

Received: 28.06.22

Accepted: 30.06.22

Published: 02.07.22

Abstract: This article discusses the field of linguoculturology of modern linguistics, linguoculturological signs, phrases in the work "Satan", their peculiarities, expressions related to the human body.

“SHAYTANAT” ASARIDA QO’LLANGAN AYRIM FRAZEMALAR NING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Ro’zaxon No’manova

o’qituvchi

Farg’ona davlat universiteti

Farg’ona, O’zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so‘zlar: lingvokulturologik ahamiyat, turg‘un birikmalar, milliy xarakter, badiiy niyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning lingvokulturologiya yo‘naliishi, “Shaytanat” asaridagi lingvokulturologik belgilar, frazemalar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, inson tanasiga bog‘liq iboralar haqida fikr yuritilgan.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ СЛОВОСОЧЕТАНИЙ, УПОТРЕБЛЕННЫХ В «САТАНЕ»

Розахон Номонова

преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лингвокультурная значимость, устойчивые связи, рассматривается область лингвокультуро-

Аннотация: В данной статье

национальный характер, художественный замысел.

логии современного языкоznания, лингвокультурологические знаки, словосочетания в произведении «Сатана», их особенности, выражения, связанные с человеческим телом.

KIRISH

Til o‘zi mansub bo`lgan millatning madaniy olamini, xarakter-xususiyatini ham namoyon etib turuvchi asosiy omillardan biri ekanligi barchaga ayon. Til va madaniyat orasidagi ayni shu munosabatni tekshirib tadqiq etish ham bugungi kun tilshunosligining muhim masalalaridan sanaladi. Ma’lum millat vakillariga yoxud jamiyat a’zolariga xos bo‘lgan urf-odat, rasm-rusum, xarakter-xususiyat hamda madaniyati bilan bog‘liq boshqa bir jihatlarning til birliklarida sezilib turishi kabi masalarni lingvokulturologiya tekshiradi. Lingvokulturologiya bu – tilshunoslikning bir sohasi. Manbalarda Maslova uni fan sifatida e’tirof etadi[1]. Lingvokulturologiya XIX asrning 90-yillarida vujudga kelgan. Lingvokulturologiya ma’lum millatga oid o‘ziga xos madaniyatning, umuman olganda, xos xususiyatlarning tilda aks etishidir.

ASOSIY QISM

Lingvokulturologik ahamiyat kasb eta oluvchi o‘ziga xos birliklardan biri bu frazemalardir. Frazemalar turg‘un birikmalar hisoblanib, ularda ma’lum bir xalqning o‘ziga xos dunyosi va qiyofasi obrazli tarzda namoyon bo‘ladi. Frazeologizmlar tarkibidagi biror so‘zi bilan yoxud anglatayotgan ma’nosи bilan o‘zi mavjud til tegishli bo`lgan millat haqida milliy-madaniy axborot beradi.

Xalq tilida mavjud iboralar shu xalqning fe’l-atvorini, urf-odatlarini, mentaliteti hamda o‘ziga xos tabiatи, xarakter, xususiyatlarini ham o‘zida aks ettirib turadi.

O‘zbek tili leksikasida mavjud frazemalarning deyarli hammasi lingvokulturologik xususiyatga ega. Chunki Masalan, qo‘li ochiq frazemasи saxiy ma’nosida qo‘llanuvchi belgi bildiruvchi frazema bo‘lib, aynan tanti va mehmondo‘st, hojatbaror xalqimizning vakillariga nisbatan ishlatiladi.

Iboralar nafaqat xalq jonli tilida ishlatiladi, balki badiiy asarlarda ham muallif va qahramonlar tilidan qo‘llaniladi. Bu esa muallif badiiy niyatini olib berishga xizmat qiladi. Bu jarayon badiiy asarlar paydo bo‘lgan davrlardanoq mavjud bo‘lgan. “Frazeologizm ifoda vositasi sifatida qaralganda Arastuga borib taqaladi”. Tilda, shu jumladan, badiiy adabiyot tilida frazeologik iboralarning vujudga kelishini to‘g‘ri tushunish uchun bir-biridan keskin farqlanuvchi ikki hodisani alohida-alohida tekshirib ko‘rish lozim. Ulardan biri erkin so‘z birikmalarining frazeologik iboralar sifatida turg‘unlashuvini keltirib chiqaradigan ichki til qonuniyatları bo‘lsa, ikkinchisi, tilga aloqasi bo‘lmagan har xil ekstralengistik faktorlarning ta’siridir. Frazeologik birliklarning paydo bo‘lishini o‘rganishda deb yozadi A.P.Xazanovich,

ularni keltirib chiqaradigan til vositalari, til protsessorlari, iboralarning shakllanish texnikasi) bilan bir qatorda sirtqi hodisalarni ya‘ni frazeologik birlik vujudga keladigan sohalar: kasb-hunar va ijtimoiy muhitni turlicha hayot sharoitlarini ham tekshirish lozim. Chunki har xil tipdag‘i frazeologik birliklarning shakllanishida bu ikki faktorning salmog‘i turlichadir. Masalaning bu taxlitda qo‘yilishi ayrim iboralarning vujudga kelishida ishtirok etmas ekan, degan fikrni anglatmaydi, albatta. Har qanday iboraning, frazeologik birlikning vujudga kelishida sirtqi omilning ta‘siri bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, iboraning vujudga kelishida tashqi muhit omil boladi va ayni shu muhit yoki sharoit xususiyati iborada aks etadi. Badiiy asarda frazemaning qo‘llanilishi esa tasvir etilayotgan muhitning va obrazlarning haqqoniy ifodasini ta’minlaydi. Shuningdek, asarda aks etayotgan qahramon hamda u mansub bo‘lgan jamiyat, umuman, millatning madaniy hayotini yorqin va obrazli chizishiga muhim vosita bo‘ladi. Bu esa iboralar lingvokulturologik ahamiyatining badiiy asarda yuzaga chiqishidir. “Shaytanat” asarida ham iboralar lingvokulturologik ahamiyat kasb etgan bo‘lib, bular orqali xalqimiz madaniyatiga oid tushunchlar o‘z ifodasini topganligini ko‘ramiz. Zero, har bir iborada ma’lum bir millat suvrati chiziladi. Quyida ularning ayrimlarini keltirib o‘tamiz. Bu holat, ayniqsa, dialoglarda yaqqol ko‘zga tashlanadi:

- *Jon oshnam, meni qiynama, menga yordaming kerak.*
- *O‘z Kuching bilan meni bu yerdan chiqarib ketganingda rahmat aytardim. Sen bo‘lsa bir boshi buzuqning marhamati bilan menga ozodlik bermoqchi bo‘libsan. Miyang aynib qolibdi.*
(Shaytanat. 1-kitob. 9-bet)

Yuqorida keltirilgan dialogda qo‘llangan “miyasi aynimoq” iborasi aslida “fikrlash qobiliyatini yo‘qotmoq” ma’nosini bildiradi. O‘zbek tilida “miya” asosidagi frazemalar talaygina”, “miyasini achitdi”, “miyasi g‘ovlab ketdi”, “miyasini qotirdi”, “miyasida danak chaqdi” va hokazo. Lekin ma’nolarida bir xillik yo‘q. Yuqoridagi iboradan so‘zlovchining foydalanishi tinglovchini kamsitilganligi, haqorat qilinganlikni anglatadi va shu kabi iboralar juda kuchli g‘azab yoxud ziddiyat yuzaga kelganida qo‘llanadi. Asarda iboraning Anvar tilidan eng yaqin do‘sti Elchinga nisbatan aytilganining o‘zi uning zamirida hazil, kinoya mavjudligini ko‘rsatadi. Anvar bu yerda Elchinday yosh, oq-u qorani tanigan (qamoqdan keyin), soddadil yigitning Asadbek otli “boshi buzuq” qa qo‘shilib qolganiga hayronlik ishorasini bildiradi, bundan ranjiganini oshkor etadi.

O‘zbek tilida tana azolarini ifodalovchi so‘zlar yordamida tuzilgan iboralar va birikmalar mavjud. Xususan, buni “yurak” so‘zi ishtirokidagi frazemalarda ham ko‘rish mumkin:

U tubsizlik sari uchdi. Nafasi qaytdi. Onasi “baxtsizlikka uchrasang” “la ilaha illolloh”, deb aytgin” degan edi. Bu o’gitni qariyb unutgan ham edi. Hozir, yuragi qinidan chiqayozgan holda qorong‘i bo’shliq sari uchib borayotganda shu so‘zlarni esladi

Keltirilgan ibora ham xalqimiz tomonidan ko‘p foydalaniladi. U asosan ikki holat yuzaga kelganida ishlatiladi:1) qo‘rquv yuzaga kelganida; 2) shodlangan paytda;

Bu yerda birinchi holatni kuzatdik. Zohid ham qulab tushayotganidan, ham umri davomida unutib qo‘ygani Ollohnning yordamga kelgani (muborak so‘zlarni eslatganidan)dan, u bilan yuzma yuz bo‘lish ehtimolidan qo‘rquvga tushdi. Go‘yoki tanasidagi urib turgan yuragi joyidan chiqib ketayotgandek tuyuladi.

Bundan tashqari asarda qahramonlar tilidan keltirilgan “Qo‘y o‘gzidan cho‘p olmagan” iborasi – nihoyat darajada beozor, mo‘min “fe’l-atvorni bildiruvchi frazema bo‘lib, yuvosh, xushfe’l insonlarga nisbatan ishlatiladi. Bu frazemaning ham lingvokulturologik ahamiyati mavjud. Bunda ham shaklan, ham mazmunan xalqimiz madaniyati va ma’naviyatiga xos belgilar mavjud. Xalqimiz turmush tarzida azaldan chorvadorlik ishi muhim o‘rin tutgan. Iborada aynan yuvosh jonivor qo‘y obrazining keltirilganligi ham mana shu omilga bog‘liq. Cho‘p obrazi ham xalq og‘zaki ijodi namunalarida juda ko‘p uchraydigan predmet sanaladi. Yoki “Terisiga somon tiqqan” iborasi ham azaldan dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullangan xalqimizning turmush tarziga bevosita xosdir. Qattiq azoblamoq, qiyamoq ma’nosida qo‘llanuvchi bu iborada aynan somon detalining ishtirok etishi iboraning xalqchil ruhini namoyon qiladi. Shu bilan birga “Og‘ziga tolqon solmoq” – mutlaqo gapirmaslik, “To‘ydan oldin nog‘ora chalmoq” – bajarilmagan holat yoki harakatni ovoza qilmoq, “Chuchvarani xom sanamoq” – xato o‘ylamoq, “Kindigi kesilgan” – tug‘ilgan, “Kindik qoni tomgan” – tug‘ilgan, “Ikki dunyoda ham” – hech qachon, “Izzat nafsiga tegmoq” – kamsitadigan so‘z aytmoq, “To‘nini teskari kiymoq” – fikridan qaytmoq, “Zuvalasi pishiq” – a’zoyi badani chiniqsan kabi frazemalar ham keng qo‘llangan va ular qahramon xarakteri bilan birga o‘zida mentalitetimizga aloqadorlikni ham tashiydi. Bunday iboralarni ba’zilari tarkibidagi so‘zları bilan, ba’zilari anglatayotgan ma’nosı bilan lingvokulturologik xususiyatga ega bo‘lgan frazemalarga yaqqol misol bo‘ladi. Bular tarkibidagi so‘z va uning ma’nosı jihatidan ham aynan xalqimiz madaniyati va turmush tarziga xos, xalqchil bir tushunchalarni o‘zida ifodalagan. Bunday iboralar tilimizda juda ko‘plab uchraganligi holida, ularni og‘zaki va yozma qo‘llanishi nutqning jozibasini bo‘yoqdor va obrazliligini ta’min etadi. Iboralar ko‘pincha so‘zlashuv uslubi va badiiy uslubga xos bo‘lib, kinoya va qochiriplarga boy bo‘ladi. Ko‘chma ma’noda keluvchi bu birliklarda yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘zi tegishli bo‘lgan til birliklariga oid xususiyatlar madaniy jihatdan ko‘rinib turadi. Iboralar nafaqat xalq jonli tilida ishlatiladi, balki badiiy asarlarda ham muallif va qahramonlar tilidan qo‘llaniladi. Bu

esa muallif badiiy niyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bu jarayon badiiy asarlar paydo bo‘lgan davrlardanoq mavjud bo‘lgan. “Frazeologizm ifoda vositasi sifatida qaralganda Arastuga borib taqaladi”. Yozuvchi tili va frazeologiyasiga bag‘ishlangan ishlarda yangidan ijod qilingan ayrim iboralar keltirilsa ham, lekin yozuvchining ibora yaratishdagi texnikasi tilda frazeologik iboralarning vujudga kelish yo‘llari, badiiy-estetik va stilistik qiymati maxsus tekshirilmaydi. Vaholanki, busiz yozuvchi tili va uslubining o‘ziga xos tomonlarini namoyon etish mumkin emas.

XULOSA

Xulosa qilib aytganimizda “Shaytanat” asarida milliy xalq xarakteri, ma’naviyatini ochib beruvchi frazemalar anchagina bo‘lib, ulardan foydalanish ham yozuvchi badiiy mahoratini, ham qahramon xarakteristikasini, asosiysi esa, o‘zbek millatiga xos xususiyatlarni to‘laqonli ochib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Маслова О. Лингвокултология. -М.,2010.
2. M. Yuldashev "Linguistic analysis of the literary text" 2008. Tashkent.
3. Kh. Tokhtaboyev "Riding the Yellow Giant". 2005. Tashkent.
4. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel “Night and day” by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
5. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov’s Story “Yanga”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.
6. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
7. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 4-91.
8. Сабирдинов, А. Г. (1993). Слово и образ в поэзии Айбека.
9. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
10. Oripova Gulnoza Murodilovna. (2019). THE PECULIARITIES OF VAZN METER IN UZBEK POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 8 /Issue:2/. – Macedonia, 2019. – P.33-39.
11. Murodilovna, O. G. (2020). Melody and musicality in Lirycs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 656-664.

12. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 03. – C. 245-249.
13. Oripova, G. (2020, December). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. In Конференции.
14. Oripova, G. (2019) "Traditions of folk ballads and distinctiveness of uzbek poetry of independence period," Scientific journal of the Fergana State University: Vol. 2 , Article 12.
15. Oripova, G. M. (2021). Genesis And Essence Of Genre Concept. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 90-94.
16. Nomanova Rozakhon Nomonjon kizi. "A Psycholinguistic Analysis of Some Units in Satan's Work.
17. Nomaniva Ruzakhon Nomonjon kizi, Mukaddas Abdurakhimovna Tadjibayeva "THE EXPRESSION OF THE IDEA OF ENLIGHTENMENT IN THE POETRY OF HAMZA HAKIMZODA"/ACADEMICIA:An International multidisciplinary Research Journal.Vol.10,Issue 11, November 2020. 1272-1276
18. Karimov, N. (2022). IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING ORIENTAL CULTURE AND HERITAGE. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.
19. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.
20. Nomaniva Ruzakhon Nomonjon kizi, Mukaddas Abdurakhimovna Tadjibayeva "Musamat and his special place in Hamza Hakimzoda's poetry". INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOVERIES AND INNOVATIONS IN APPLIED SCIENCES (IJDIAS) Volume 1. No 4(sep 2021) 63-67